

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

PROPEDEVTIK STOMATOLOGIYA KAFEDRASI



**ORTOPEDIK
STOMATOLOGIYA PROPEDEVTIKASI
FANI BO'YICHA**

| | | |
|--------------------------|----------|---|
| Bilim sohasi: | 900000 | - Sog'liqni saqlash va ijtimoyi ta`minoti |
| Ta'lim sohasi: | 910000 | - Sog'liqni saqlash |
| Ta'lim yunalishi: | 60910100 | - Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha) |

Andijon 2025

a

| | | | | |
|-----------------------------------|---|---|-------------------------------|-------------------------------------|
| Fan/modul kodi OSP-235 | | O'quv yili 2025-2026 | Semestr III | Kreditlar 3 |
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim turi O'zbek/rus | | Xaftadagi dars soatlari 2 |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Ortopedik stomatologiyapropede vtikasi | 30 | 30 | 30 |
| | | 6+24 | | |
| 2. | <p>1.O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni Ortopedik stomatologiya propedevtikasi moduli o'quv rejaning ixtisoslik moduli hisoblanib, 2 kursning III semestrlarida o'qitiladi. Modulni mutaxassislikka kirish, modulning qisqacha tarixi, vazifalari, nazariy va amaliy tibbiyotda tutgan o'rni, ortopedik stomatologiya amaliyotida ishlatiladigan asbob va uskunalar turlari, klinik-funksional tekshirish usullarini, tish protezlashga tayyorlash asoslarini, okklyuziyani tiklash mezonlarini, ortopedik davolashning estetik asoslarini o'z ichiga qamraydi, bo'lg'usi umumiy amaliyot stomatologida klinik fikrlash, kasallik va uning belgilarini asoslash uchun zamin yaratib beradi. Ushbu modul uchun klinika oldi modullaridan anatomiya, fiziologiya, biofizika, tibbiy kimyo modullari nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi. Modul klinik modullardan Olinadigan tishlar bilan protezlash, Qisman olib qo'yiladigan tishlar bilan protezlash, to'liq olib qo'yiladigan tishlar bilan protezlash, dental implantologiya modullari uchun zamin hisoblanadi.</p> <p>2.O'quv modulining maqsadi va vazifalari</p> <p>2.1.Modulning maqsadi - talabalarni klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan uslublarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali, ya'ni tish qattiq to'qima va tish qatorlari nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmlari, klinikalari, tashxis va qiyosiy tashxislari va davolash usullari hamda ularni oldini olish choratadbirlarini o'rgata borish va shakllantirishdan iborat.</p> <p>2.2.Modulning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - modulning bo'limlariga tegishli bilimlar bilan talabalarni bosqichmabosqich tanishtira borish, o'rgata borish va ko'nikmalarni hosil qilish; yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiq etib, talabani klinik fikrlash qobiliyatini o'stirish va bilimni saqlash darajasini oshirish; talabaning klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga yetkazish; - modul sohasiga taalluqli tish qattiq to'qima va tish qatorlari nuqsonlarining tashxisi va qiyosiy tashxisi bosqichlarini, davolash va profilaktika usullarining zaruriy jihatlari to'g'risida ma'lumot berish. <p>2.3.Modul bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyiladigan talablar:</p> <p>3 semestr Talaba: -ortopedik stomatologiyada qo'llaniladigan metall qotishmalarning turlari, keramika</p> | | | |

turlari, polimerlarning turlari va qo'llanilishi, tish sozlash laboratoriyasida qo'llaniladigan xomashyolar turlari haqid tasavvurga ega bo'lishi;
 -stomatologik qurilmaning tuzilishi, tishlar charxlash uchun asboblarni, qolip oluvchi xomashyolarning va jihozlarning turlarini, pastki jag' harakatini tiklovchi jihozlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
 -og'iz bo'shlig'ini ko'rikdan o'tkazish, anamnez yigish, kasallik tarixini to'ldirish, odontoparodontogrammani to'ldirish, oddiy modellar quyish malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I.Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1 - mavzu. Tekshirishning asosiy va qo'shimcha usullari. Bemorni tashqi tekshiruv. Og'iz bo'shlig'ini tekshirish. Apparatura tekshirish usullari (termometriya, densitometriya, elektrometriya, galvanometriya, LDF, reografiya, fotopletismografiya, polyarografiya, exosteometriya, pH-o'lchash, rentgenografiya va boshqalar). Chaynash bosimi va chaynash samaradorligini aniqlash usullari. CHPJB diagnostikasi usullari.

2- mavzu. Ortopedik stomatologiyada ishlatiladigan asosiy xom ashyolar. Stomatologiyada qo'llaniladigan xom ashyolar asosiy xususiyatlari (mexanik, texnologik, fizik-kimyoviy, biologik va boshqalar), ularga qo'yiladigan talablar. Metallarning qotishmalari, polimerlar.

3-mavzu. Keramika, sitallar, keramerlar, dioksid tsirkoniy. CAD/CAM tizimi.

4- mavzu. Ortopedik stomatologiyada ishlatiladigan yordamchi xom ashyolar: shakl beruvchi, abrazivlovchi, sayqallaydigan va boshqalar.

5-mavzu. Qolip oluvchi xom ashyolar, jag'larning qoliplari va modellari. Qolip oluvchi xom ashyolarga qo'yiladigan talablar va ularning tasnifi. Qolip oluvchi xom ashyolarni qiyosiy baholash va tanlash. Anatomik va funktsional qoliplar, birlamchi va ikkilamchi qoliplar. Sifatli qolipni baholash mezonlari. Turli xil modellarni olish usullari. Ikki qavatli qolipni olish turlari: ikki bosqichli va bir bosqichli usulda.

III. Amaliy mashqlar bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalar.

3.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya yetiladi:

| № | Mavzular | Umumiy soat | Amaliy mashg'ul |
|--------------------|--|-------------|-----------------|
| III semestr | | | |
| 1 | Ma'ruza № 1. Tekshirishning asosiy va qo'shimcha usullari. Bemorni tashqi tekshiruv. Og'iz bo'shlig'ini tekshirish. Apparatura tekshirish usullari (termometriya, densitometriya, elektrometriya, galvanometriya, LDF, reografiya, fotopletismografiya, polyarografiya, exosteometriya, pH-o'lchash, rentgenografiya va boshqalar). Chaynash apparati biomexanikasi. Tishlash, okklyuziya turlari. Ovqatni tishlash va chaynash paytida pastki jag'ning chaynash harakatlarining bosqichlari. Chaynash bosimi | 4 | 2\2 |

| | | | |
|---|--|---|-----|
| | <p>va chaynash samaradorligini aniqlash usullari. CHPJB diagnostikasi usullari</p> <p>Amaliy mashg'ulot № 1. Ortopedik stomatologiya amaliyotida ishlatiladigan Strukturaviy va yordamchi stomatologik materiallar. Strukturaviy materiallar. Metall qotishmalari. Quyish, shtamplash, kavsharlash jarayonlari, ular uchun ishlatiladigan metall qotishmalari</p> <p>Klinik amaliyot № 1. Mumdan modelda tishning toj qismini shakllantirish</p> | | |
| 2 | <p>Ma'ruza № 2. Ortopedik stomatologiyada ishlatiladigan asosiy xom ashyolar. Stomatologiyada qo'llaniladigan xom ashyolar asosiy xususiyatlari (mexanik, texnologik, fizik-kimyoviy, biologik va boshqalar), ularga qo'yiladigan talablar. Metallarning qotishmalari, polimerlar. Keramika, sitallar, keramerlar, dioksid tsirkoniy. CAD/CAM tizimi.</p> <p>Amaliy mashg'ulot № 2. Ortopedik stomatologiyada ishlatiladigan asosiy stomatologik plastmassalar,, ularning turlari. Plastmassa qo'llanilishi texnologiyasi. Polimerizatsiya jarayoni.</p> <p>Klinik amaliyot № 2. Alginat xomashyodan qolip olish</p> | 4 | 2\2 |
| 3 | <p>Ma'ruza № 3. Ortopedik stomatologiyada ishlatiladigan yordamchi xom ashyolar: shakl beruvchi, abrazivlovchi, sayqallaydigan va boshqalar. Qolip oluvchi xom ashyolar, jag'larning qoliplari va modellari. Qolip oluvchi xom ashyolarga qo'yiladigan talablar va ularning tasnifi. Qolip oluvchi xom ashyolarni qiyosiy baholash va tanlash. Anatomik va funktsional qoliplar, birlamchi va ikkilamchi qoliplar. Turli xil modellarni olish usullari. Ikki qavatli qolipni olish turlari: ikki bosqichli va bir bosqichli usulda</p> <p>Amaliy mashg'ulot № 3. Kompozitlar, kompomerlar va keramerlar. Kompozitsion xom ashyolar tasnifi. Nur ostida qotadigan va qoplash (oblisovka) uchun qo'llanildigan kompozit xom ashyolar. Ortopedik stomatologiyada ishlatiladigan sementlar.</p> <p>Klinik amaliyot № 3. Gipsdan oddiy modellar quyish..</p> | 4 | 2\4 |
| 4 | <p>Amaliy mashg'ulot № 4. Chinni. Texnik va tibbiy xususiyatlar. Kimyoviy tarkibi, fizik va mexanik xususiyatlari. Press-keramika va sitallar. Dioksid siron. CAD-CAM tizimi.</p> | 2 | 2 |
| | <p>Amaliy mashg'ulot № 5. Stomatologiya laboratoriyasida ishlatiladigan yordamchi xom ashyolar tasnifi. Modellash uchun qo'llaniladigan xom ashyolar.</p> | 2 | 2 |
| 6 | <p>Amaliy mashg'ulot № 6.. Stomatologiya laboratoriyasida ishlatiladigan qoliplovchi (formovochные), oqartiruvchi, abraziv va boshqa yordamchi materiallar. Yordamchi materiallar: bosma, modellashtirish, shakllantirish, abrazivli</p> | 2 | 2 |
| 7 | <p>Amaliy mashg'ulot № 7. Qolip oluvchi xom ashyolarning tasnifi. Qolip oluvchi xom ashyolarga qo'yiladigan uchun talablar. Qolip oluvchi xom ashyolarni qiyosiy baholash va qolip oluvchi xom</p> | 2 | 2 |

| | | | |
|--------|--|----|------|
| | ashyoni tanlash. | | |
| 8 | Amaliy mashg'ulot № 8. Qoliplar va ularning tasnifi. Anatomik va funksional qoliplar. Ikki qavatli qolipni olish - ikki bosqichli va bir bosqichli usulda. | 2 | 2 |
| | Amaliy mashg'ulot № 9. Modellar, modellarning tasnifi. Maqsadlari bo'yicha modellarning turlari. Gipsli modellar (ishlaydigan, yordamchi, diagnostik, kombinirlangan). Modellarga qo'yiladigan talablar. Modellashtirish uchun ishlatiladigan xom ashyolar. | 2 | 2 |
| 1 0 | Amaliy mashg'ulot № 10. Kombinirlangan modellar. Kombinirlangan modellarni ishlab chiqarish usullari. Modellarni okklyudator va artikulyatorlarga gipslash. . Pastki jag'ning harakatlarini taqlid qiluvchi qurilmalar-okklyuzatorlar va artikulyatorlar. Pastki jag'ning vertikal va sagittal harakatlari. | 2 | 2 |
| 1 1 | Amaliy mashg'ulot № 11. Tisht ojining qisman yemirilishi. Qattiq to'qimalarning shikastlanish tasnifi. Etiologiyasi, patogenezi, klinik ko'rinishi | 2 | 2 |
| 1 2 | Amaliy mashg'ulot № 12. Tish nuqsonlarining xalqaro tasnifi, bo'shliqlar joylashgan joyning harf bilan belgilash. Blek bo'yicha bo'shliqlar tasnifi. Melikevichga ko'ra IROPZ. | 2 | 2 |
| 1 3 | Amaliy mashg'ulot № 13. 14. Tishlarning qattiq to'qimalari zararlangan bemorlarni tekshirish usullari. | 2 | 2 |
| 1 4 | Amaliy mashg'ulot № 14 .Og'iz bo'shlig'ini protezlashga tayyorgarlik. Tishlarning qattiq to'qimalarini charxlash usuli (texnikasi). Tishlarni charxlash paytida ishlatiladigan asboblari, olmos va boshqa charxlash vositalari to'plami. Suv- havo sovutish tizimi. Charxlash paytida tishlarning qattiq va yumshoq to'qimalaridagi o'zgarishlarni nazariy izohlash. Tishlarning qattiq to'qimalari uchun xavfsizlik zonalari.. | 2 | 2 |
| 1 5 | Amaliy mashg'ulot № 15. Anesteziya usullari (mahalliy, o'tkazgich). Anesteziya uchun ishlatiladigan dori vositalari. Fantomlar bilan ishlash. Fantomlarda tishlarni charxlash | 2 | 2 |
| | JAMI | 30 | 6/24 |

3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar: Modul bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3.Modulnio'qitishdavomidaegallanadiganamaliyko'nikmalarva kompetensiyalar:

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:

- UK 11. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
- UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;. Gipsdan oddiy modellar quyish.
- UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
- UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;
- UKK 12. Stomatologik qurilma bilan ishlash (yoqish, nakonechnik maxkamlash, nakonechnikka turli xildagi rotatsion qurilmalarni maxkamlash);
- UKK 2. Stomatologik muolajalar uchun asbob uskunalar tanlash; UKK 3. Og'iz dahlizi va og'iz bo'shlig'ini ko'rigi;
- UKK 21. Stomatologik hujjatlarni to'ldirilish qoidasi; UKK 22. Og'iz bo'shlig'ini ko'zdan kechirish;
- UKK 25. Perkussiya o'tkazish;
- UKK 26. Og'iz bo'shlig'i to'qimalarini palpatsiyalash
- UKK 27. Zondlashni o'tkazish.

Modul davomida o'quv klinik amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Talabalarining Ortopedik stomatologiya propedevtikasi moduli bo'yicha klinik o'quv amaliyoti ta'lim jarayonining 50% tashkil qiladi va poliklinikaning ortopedik stomatologiya va stomatologiya bo'limlarida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. **Birinchi bosqich** – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabalar tanishtiriladi. Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

2.**Ikkinchi bosqich** – amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmlar orqali namoyish etiladi, algoritm asosida bosqichma-bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, talabalar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, so'ng umumlashtirgan holda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruxsat beriladi (imitatsion trening). Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma qadam algoritmi va videofilm, o'kuv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak

bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'irlaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoyish etilishi, tanqidiy muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi.

3.Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemor (fantom, volonter) da qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli hil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni tahlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi. Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarixlari va ambulator kartalar va x.q. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda, balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

4.To'rtinchi bosqich – hulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'llay olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb hisoblanadi. To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib himoya qilganda baholanadi. Ortopedik stomatologiyada uchraydigan kasalliklarning barcha klinik turlarida kasallik tarixini yozish va himoya qilish ko'zda tutiladi. Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda modulni o'zlashtirgan hisoblanadi. Amaliy ko'nikmalarni shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajariladi va kundalik (amaliy ko'nikma) daftarlarida aks etadi. Amaliy ko'nikmalar assistent-talaba, talaba-fantom, talaba-volonter, talaba- bemor uslubida avtomatizm darajasiga yetkazish lozim.

4.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1.Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:

4-semestr

- 1.Chinni, uning fizik, kimyovi va texnologik xossasi.
- 2.CAD-CAM tizimining imkoniyatlari.
- 3.Zamonaviy qolip oluvchi xomashyolar tasnifi.
- 4.Anesteziya uchun ishlatiladigan zamonaviy xomashyolar.
- 5.Charxlash uchun ishlatiladigan asboblari. Ularga bo'lgan talablar.

4.2.Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Ortopedik stomatologiya propedevtikasi moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil prezentatsiya, vaziyatli masala, klaster, poster va krossvordlar shaklida amalga oshiriladi.

4.3.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Ortopedik stomatologiya propedevtikasi moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi. Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi

shakllardan foydalaniladi:

- kompyuter, mulyaj, fantom va boshqa modellarda ishlash;
- bemorlar kuratsiyasi, profilaktik ko'rik, kasallik tarixini yozish;
- stomatologik klinikalar va klinik o'quv bazalarda auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;
- modulni faol o'zlashtirishda talabalarni olimpiada, tanlovlar, ko'rgazma, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;
- tish sozlash laboratoriyasida urganilaetgan tish protezni laborator bosqichlarini son va sifat jixatdan bajarish, modelda mumdan tishlarning toj qismini shakillantirish;
- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sasestudy) yechish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

Kurs ishi (loyihasi) ko'rsatma va tavsiyalar

Modul bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejasida ko'zda tutilmagan.

Modul bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish turlari va baholash mezonlari Ortopedik stomatologiya propedevtikasi moduli bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Talabalarining modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

-joriy nazorat (JN);

-oraliq nazorat (ON)

-yakuniy nazorat (YAN).

Modulga ajratilgan 3 kreditni talaba JN davomida yig'adi

| № | Baholash turi | Kredit soni |
|----------|----------------------|--------------------|
| 1 | Joriy nazorat | 3,0 |
| 2 | Oraliq nazorat | 0,0 |
| 3 | Yakuniy nazorat | 0,0 |
| | JAMI | 3.0 |

JORIY NAZORAT (JN)

Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetentsiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Ortopedik stomatologiya propedevtikasi moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, bemorlar bilan ishlash, uyga berilgan

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarniegallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

Joriy nazorat uchun ajratilgan 4 kredit quyidagicha taqsimlanadi:

Protezlash ahamiyati bo'lgan tish-jag' tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari – 2 kredit; Ortopedik stomatologiyada qo'llaniladigan

tekshirish usullar i– 2 kredit; 2

kredit; Asosiy va yordamchi xomashyolar – 3 kredit;

Talaba har bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina yakuniy nazoratga kiritiladi. Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi. Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi. Semestr yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan kursga qoldiriladi

Mustaqil ta'lim uchun mavzular:

| T.r | Mavzular nomi | Soati |
|--------------------|---|-----------|
| III semestr | | |
| 1 | Chinni, uning fizik, kimyovi va texnologik xossasi. | 6 |
| 2 | CAD-CAM tizimining imkoniyatlar | 6 |
| 3 | Zamonaviy qolip oluvchi xomashyolar tasnifi. | 6 |
| 4 | Anesteziya uchun ishlatiladigan zamonaviy xomashyolar | 6 |
| 5 | Charxlash uchun ishlatiladigan asboblari. Ularga bo'lgan talablar | 6 |
| J A M I | | 30 |

3. **V. Ta'lim natijalari / kasbiy vakolatlar:**
Modul (mavzu)bo'yicha talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar ro'yxati:
3 semestr.
Talaba:
 -ortopedik stomatologiyada qo'llaniladigan metall qotishmalarning turlari, keramika turlari, polimerlarning turlari va qo'llanilishi, tish sozlash laboratoriyasida qo'llaniladigan xomashyolar turlari haqid tasavvurga ega bo'lishi;
 -stomatologik qurilmaning tuzilishi, tishlar charxlash uchun asboblarni, qolip oluvchi

| <p>xomashyolarning va jihozlarning turlarini, pastki jag' harakatini tiklovchi jihozlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;</p> <p>-og'iz bo'shlig'ini ko'rikdan o'tkazish, anamnez yigish, kasallik tarixini to'ldirish, odontoparodontogrammani to'ldirish, oddiy modellar quyish malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak</p> | | | | | | | | | | |
|--|------------|-----------------------|-------------------|---------|---------|--------|---|-----------------------|---|------|
| <p>4. VI. Texnologiya va o'qitish uslubi:</p> <ul style="list-style-type: none"> * Ma'ruzalar; * Guruh ishi; * Prezentasiyalar tayyorlash; * Shaxsiy loyihalar; * Guruh ishi va manfaatlarini himoya qilish loyihalari; * Rolli o'yinlar, munozaralar | | | | | | | | | | |
| <p>5. VII. Kredit olish uchun talabalar:</p> <p>Joriy va oraliq nazorat shaklida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki savollarga javob berish va qo'lda ishlash ko'nikmalarini bajarish.</p> <p>VIII. Joriy nazorat uchun ko'rsatmalar.</p> <p>JORIY NAZORAT(JN)</p> <p>Joriy nazorat fan bo'yicha fanning ma'lum bir bo'limi bo'yicha talabalarning bilim va ko'nikmalari darajasini baholashni ko'zda tutadi. "Stomatologiyaga kirish" fanidan talabalarning bilim va ko'nikmalarini joriy nazorat qilish tarqatma materiallarni o'qitish va nazorat qilish, kasalliklar va ularning diagnostikasini o'rganish, mustaqil ishlarni bajarish, uy vazifalari, amaliy ko'nikmalar yordamida og'zaki ravishda amalga oshiriladi. Talabaniy bilim darajasini baholashda dars mavzusini o'zlashtirish, talabaniy darsning nazariy qismini muhokama qilishda ishtiroki, talabaniy interfaol o'qitish usullarida faol ishtiroki, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi hisobga olinadi. Har bir amaliy darsda talabalarning bilimlari har kuni baholanishi kerak.</p> <p>Amaliy darsni baholash mezonlari joriy nazorat bo'lib, u talabaniy amaliy darsga tayyorligini va vazifaning sifatini nazorat qilishni nazarda tutadi. O'qitish texnologiyasida amaliy dars tuzilishidan kelib chiqqan holda joriy amaliy darsni baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Har bir darsda barcha o'quvchilarni baholash kerak. Maksimal 100, o'tish 60 ball. Joriy nazorat quyidagi sxema bo'yicha talabalar bilimiga asoslanib amalga oshiriladi: nazariy va amaliy qism (50: 50). Joriy nazorat uchun 3 ta kredit ajratilgan. Kasallik tufayli darslarga qatnashmagan va belgilangan muddatda joriy nazoratdan o'ta olmagan talabalar fakultet dekanining buyrug'iga asosan o'quv mashg'ulotlari boshlangandan keyin ikki hafta ichida murojaat yetishlari mumkin. Semestr yakunida joriy modul nazoratida o'tish balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Qarzdor talabalarga semestr oxirida qayta topshirish uchun bir oy beriladi. Semestr oxirida modulda o'tish bahosidan past olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi</p> <p style="text-align: center;">Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th style="width: 10%;">Ball</th> <th style="width: 10%;">ECT Sbah o</th> <th style="width: 50%;">ECTS ning ta'rifi</th> <th style="width: 10%;">Baho</th> <th style="width: 10%;">Ta'rifi</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td style="text-align: center;">90-100</td> <td style="text-align: center;">A</td> <td>“a'lo” – a'lo natija,</td> <td style="text-align: center;">5</td> <td style="text-align: center;">a'lo</td> </tr> </tbody> </table> | Ball | ECT Sbah o | ECTS ning ta'rifi | Baho | Ta'rifi | 90-100 | A | “a'lo” – a'lo natija, | 5 | a'lo |
| Ball | ECT Sbah o | ECTS ning ta'rifi | Baho | Ta'rifi | | | | | | |
| 90-100 | A | “a'lo” – a'lo natija, | 5 | a'lo | | | | | | |

| | | | | | | |
|---------|---|--|---|---|--------|--|
| | | minimal hatoliklar bilan | <p>dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>fan/modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>fan/modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>fan/modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p> | | | |
| 70-89,9 | B | "juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim xatolik- | <p>fan dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga</p> | 4 | yaxshi | |

| | | | | | | |
|---------|---|---|---|---|------------|--|
| | | lar bilan | <p>javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>fan/modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg‘ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri (lekin doim ham ratsional emas) qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>fan/modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;</p> <p>o‘rganilayotgan modul bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim;</p> | | | |
| 60-69,9 | C | "qoniqarl i " – o‘rtacha natija, syezilarli xatolik-lar bilan | <p>Fan/modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z</p> | 3 | qoniqar li | |

| | | | | | | |
|-------|---|--|--|---|------------|--|
| | | | <p>o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>fan/modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg‘ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri (lekin doim ham ratsional emas) qo‘llay</p> <p>semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo‘lishi lozim;</p> | | | |
| 55-59 | E | <p>“qoniqar siz” – minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo‘shimcha mustaqil o‘zlash-tirishi zarur</p> | <p>davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega emas;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yishi;</p> <p>javob berishda yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va qo‘pol hatolarga yo‘l qo‘yganda, fan/modul bo‘yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil</p> | 2 | qoniqarsiz | |

| | | | | | |
|-------|----|---|---|---|------------|
| | | | darajasida va hatoliklar bilan egallashi; o‘qilayotgan fan modul bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olmasligi; | | |
| 31-54 | FX | “qoniqarsiz” | davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo‘lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ysa; nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo‘lsa; amaliy ko‘nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo‘lmasa, o‘z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to‘g‘rilay olmasa. | 2 | Qoniqarsiz |
| 0-30 | F | “mutloq qoniqarsiz” – to‘liq qayta o‘zlashtirishi lozim | davlat ta’lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo‘lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo‘pol mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo‘lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko‘nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo‘lmasa, o‘z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to‘g‘rilay olmasa. | 2 | Qoniqarsiz |

YAKUNIY NAZORAT (YAN)

1-kurs talabalari 1-semestr oxirida yakuniy nazoratni OSE usulida topshiradilar. Maksimal ball 100, o‘tish bali 60 ball. YANda saralash balini (60) yig‘a olmagan talaba YANDan o‘tmagan va modulni o‘zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda to‘liq kreditni

yigʻgan boʻlsa ham).

Taʼlim muassasasi rektorining buyrugʻi bilan ichki nazorat va monitoring boʻlimi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni oʻtkazish jarayoni davriy ravishda oʻrganib boriladi va uni oʻtkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta oʻtkaziladi.

Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, oʻqishni boshlaganidan soʻng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball toʻplagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi boʻlsa, modul boʻyicha nazorat turi natijalari eʼlon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga koʻra rektor buyrugʻi bilan 3 (uch) aʼzodan kam boʻlmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini koʻrib chiqib, shu kunning oʻzida xulosasini bildiradi.

Baholashning oʻrnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda oʻtkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, oʻquv boʻlimi hamda ichki nazorat va monitoring boʻlimi tomonidan nazorat qilinadi.

6 Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari
Asosiy adabiyotlar

1. Akbarov A.N., Xabilov N.L., Arslanov O.U., Usmonov F.K., Ziyadullaeva
2. N.S. Olinmaydigantishlar bilan protezlash, Darslik. Toshkent. 2018 y.
3. Akbarov A.N., Xabilov N.L., Arslanov O.U., Usmonov F.K., Ziyadullaeva
4. N.S. Protezirovaniye nes'emnymi zubnymi protezami, Uchebnik. Toshkent. 2018 g.
5. Irsaliyev X.I., Nigmatov R.N., Xabilov N.L. Ortopedik stomatologiya, Darslik. Toshkent. 2011 y
6. Irsaliyev X.I., Raxmonov X.SH., Xabilov N.L., Safarov M.T., Raxmatullaev F.T. Ortopedik stomatologiya propedevtikasi, Darslik. Toshkent. 2006 y.

7. **Доцент, к.н. Азизова Д.А. (кафедра стоматологии и имплантологии, Центр медицины и фармации), DAAzizova, Сабаиха С.З va boshqalar. "Стоматология пропедевтическая"**

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Trezubov V.N. i dr. Ortopedicheskaya stomatologiya. Prikladnoye materialovedeniye, Uchebnik. Moskva. 2014 g.
2. Trezubov V.N., Щербakov A.S., Mishnev L.M.. Ortopedicheskaya stomatologiya. Propedevtikai osnovy chastnog kursa. Uchebnik. Moskva. 2014 g.
3. Ortopedicheskaya stomatologiya, Uchebnik. Moskva. 2011 g.
4. Trezubov V.N. i dr. Ortopedicheskaya stomatologiya, Uchebnik. Moskva. 2010 g.
5. Lektsii po ortopedicheskoy stomatologii. Pod redaktsiyey T.I. Ibragimova. Moskva. 2010 g.
6. Lebedenko I.YU., Kalamkarova S.X. Ortopedicheskaya stomatologiya: algoritmy diagnostiki i lecheniya, Uchebnoye posobiye. Moskva. 2008 g.
7. A.I. Abduraxmanov, O.R. Kurbanov. Materialy i texnologii v ortopedicheskoy stomatologii, Uchebnoye posobiye. Moskva. 2008 g..
8. Aristarxov I.V. Ortopedicheskaya stomatologiya, Uchebnik. Moskva. 2006
9. Paraskevich V.L. Dentalnaya implantologiya, Uchebnoye posobiye. Kazan. 2006 g.
10. Kopeykin V.N., Mirgazitov M.Z. Ortopedicheskaya stomatologiya, Uchebnoye posobiye. Moskva. 2001 g.

Internet saytlari

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.edu.uz>

<http://www.stomatolog.ru>;

<http://www.dentist.ru>;

<http://www.dentoday.ru>.

user6_uzb@lecturio.com Germaniyaning "Lecturio GmbH" meditsina sayti

Ishchi o'quv modul dasturiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar:

Ortopedik stomatologiya propedevtikasi moduli bo'yicha ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda xorijiy oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar o'rganib chiqildi va ishchi dasturni ishlab chiqishda halqaro tajriba asosida o'zgartirishlar kiritildi:

1. Qozon (Volga bo'yi) federal universiteti (№401) o'quv ishlari bo'yicha prorektori

prof.D.A.Tayurskiy tomonidan 2018 yilda tasdiqlangan “Propedevtik stomatologiya” modulining fan dasturi.

Доцент, к.н. Азизова Д.А. (кафедра стоматологии и имплантологии, Центр медицины и фармации), DAAzizova, Сабаиха С.З va boshqalar. "Стоматология пропедевтическая”

2. Florida Universiteti (AQSH), Stomatologiya fakulteti, Tish protezlash klinik kursi sillabusi: <https://dental.ufl.edu/wordpress/files/2020/08/7845L.pdf>

Reyting: Times Higher Education World University Rankings 2025, №130/
(https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/latest/world-ranking#!/length/25/name/florida/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/scores)

3.Texas A&M University (AQSH), Stomatologiya fakulteti, «Stomatologiyaga kirish» moduli sillabusi:

<https://dentistry.tamu.edu/departments/dental-hygiene/admissions/syllabi/dhy-syllabi-1st-year/pdfs/3110-introduction-to-dentistry.pdf>

Reyting: Times Higher Education World University Rankings 2025, №143/
(https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/latest/world-ranking#!/length/25/name/texas/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/scores)

Yuqoridagi nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarini o‘rganib chiqib, mazkur ishchi dasturga quyidagi mavzular qo‘shimcha sifatida kiritildi:

- 1.Chaynash apparati biomexanikasi. Tishlash, okklyuziya turlari. Ovqatni tishlash va chaynash paytida pastki jag'ning chaynash harakatlarining bosqichlar
- 2.Turli xil modellarni olish usullari. Ikki qavatli qolipni olish turlari: ikki bosqichli va bir bosqichli usulda
- 3.Ortopedik stomatologiya amaliyotida ishlatiladigan strukturaviy va yordamchi stomatologik materiallar. Strukturaviy materiallar. Metall qotishmalari.
- 4.Ortopedik stomatologiyada ishlatiladigan asosiy stomatologik plastmassalar,, ularning turlari.
5. Yordamchi materiallar: bosma, modellashtirish, shakllantirish, abrazivli
- 6.Zamononoviy h qolip oluvchi materiallar.qolib olish texnikasi.
7. Pastki jag'ning harakatlarini taqlid qiluvchi qurilmalar-okklyuzatorlar va artikulyatorlar. Pastki jag'ning vertikal va sagittal harakatlari.

| | |
|--|--|
| | kafedra tomonidan ishlab chiqilgan va Markaziy uslubiy kengashining 2024 yil " _____ " _____ dagi ___ - son qarori bilan tasdiqlandi. chiqilgan va tasdiqlangan. |
| 8. Fan/modul uchun mas`ullar: | D.R.Ulugbekova - Propedevtik stomatologiya kafedra assistenti Z.Q. Xakimova - Propedevtik stomatologiya kafedra mudiri, PhD |
| 9. Taqrizchi: | |
| D.Sh.Tulanov stomatologiyasi | – ADTI , T.F.N. stomatologiya fakulteti dekani. Bolalar kafedra katta o`qituvchisi, |
| Z.N. Valiev shifokori. | Andijon viloyat bolalar stomatologiya poliklinikasi bosh |